O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Qovunlarni savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart (FFV-23:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-23:2023 “Concerning the marketing and commercial quality control of melons” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Mazkur qayta ko‘rib chiqilgan “Qovun” standarti ECE/TRADE/C/WP.7/GE.1/2010/13 va ECE/TRADE/C/WP.7/2012/8 hujjati asosida ishlab chiqilgan hamda Ishchi guruhning yetmish ikkinchi sessiyasida ko‘rib chiqilib, qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QOVUNLARNING SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDART

СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ДЫНЬ

STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF MELONS

Amalga kiritish sanasi **1.08.2026-yil**

I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart iste’molchiga yangi holatda yetkazib beriladigan Cucumis melo L. navidan yetishtirilgan qovunlari tatbiq etiladi, sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan qovunlar bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi qovunlarning sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, eksport qilishning keyingi bosqichlarida mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

- yangilik va taranglikning biroz yetishmasligi;
- mahsulotning rivojlanishi va tez buzilish xususiyati tufayli sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulotlarga egalik qiluvchi/sotuvchi bunday mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday boshqa usulda namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki sotishi taqiqlanadi. Egalik qiluvchi/sotuvchi ushbu muvofiqlikning saqlanishi uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Barcha tovar navlarida, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlarni hisobga olgan holda, qovunlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- butun [1];
- sog‘lom; iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiradigan chirish yoki buzilish alomatlariga ega mahsulotlar bundan mustasno;
- toza, har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan deyarli xoli;
- ko‘rinishi yangi;
- zararkunandalardan deyarli xoli;
- zararkunandalar tomonidan mahsulot etiga yetkazilgan zararlardan xoli;
- tarang;
- me’yordan tashqari tashqi namlikdan xoli;
- har qanday yot hid va/yoki ta’mdan xoli.

Qovunlarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:

[1] refraktometrik ko‘rsatkichni avtomatik o‘lchash natijasida bitgan kichik chandiq nuqson hisoblanmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• tashish va yuklash-tushirish ishlariga bardosh berish;
• belgilangan manziliga qoniqarli holatda yetib boorish.

B. Tasnifi

Qovunlar yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi hamda qoniqarli darajadagi yetilganlik va/yoki pishganlikni namoyon etishi kerak. Ushbu talabni qondirish maqsadida, qovun etining ekvatorial kesimi o‘rtasidan o‘lchangan refraktometrik ko‘rsatkich Sharentay turidagi qovunlar uchun 10° Briksga, boshqa qovunlar uchun esa 8° Briksga teng yoki undan yuqori bo‘lishi kerak.

C. Tasnifi

Qovunlar belgilangan ikki navga bo‘linadi

(i) Birinchi nav

Ushbu navdagi qovunlar yaxshi sifatga ega bo‘lishi kerak. Ular navga va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarni namoyon etishi kerak.

Biroq, mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish muddatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaslik keraki bilan quyidagi yengil nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

• shaklning biroz buzilishi;
• rangning biroz o‘zgarishi (qovun o‘sayotgan vaqtda yerga tegib turgan joyida po‘stining oqarishi nuqson hisoblanmaydi);
• ishqalanish yoki yuklash-tushirish ishlari natijasida yuzaga kelgan po‘stloqning biroz shikastlanishi;
• qovun bandi atrofida uzunligi 2 cm dan kam bo‘lgan va meva etiga yetib bormagan, bitgan biroz yorilishlar.

Qovun bandi bilan birga uzib olingan mahsulotlarda bandining uzunligi 2 cm dan kam bo‘lishi kerak.

(ii) Ikkinchi nav

Ushbu navga I tovar naviga kiritish talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga muvofiq keladigan qovunlar kiritiladi.

Qovunlar o‘zining sifati, saqlanish muddati va ko‘rinishiga doir asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi keraki bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakldagi nuqsonlar;
• rangdagi nuqsonlar (qovun o‘sayotgan vaqtda yerga tegib turgan joyida po‘stining oqarishi nuqson hisoblanmaydi);
• ishqalanish yoki yuklash-tushirish ishlari natijasida yuzaga kelgan po‘stloqning shikastlanishi;
• qovun etiga ta’sir etmagan hamda quruq bo‘lgan yengil yorilishlar yoki chuqur tirnalishlar;
• yengil lat yeyishlar.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. Kalibrlashga oid qoidalar

O‘lcham bir dona mahsulotning vazni yoki ekvatorial kesimining diametri bo‘yicha belgilanadi. Minimal o‘lchamlar quyidagicha belgilangan:

Vazni bo‘yicha o‘lcham belgilashda:

Sharentay, Galiya va Ogen turidagi qovunlar — 250 g;

boshqa qovunlar — 300 g.

Diametri bo‘yicha o‘lcham belgilashda:

• Sharentay, Galiya va Ogen turidagi qovunlar — 7,5 sm;

• boshqa qovunlar — 8,0 sm.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida, bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagilardan oshmasligi kerak:

• eng kichik mahsulot vaznining 50 foizidan (Sharentay turidagi qovunlar uchun 30 foizidan);

• eng kichik mahsulot diametrining 20 foizidan (Sharentay turidagi qovunlar uchun 10 foizidan).

IV. Chetlanishlarga oid qoidalar

Marketingning barcha bosqichlarida ko‘rsatilgan tovar navi talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir partiyada sifat va o‘lchamlar bo‘yicha og‘ishlarga yo‘l qo‘yiladi.[2]

A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

(i) Birinchi nav

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq II tovar navi talablariga muvofiq keladigan qovunlarning umumiy miqdori dona yoki vazni bo‘yicha 10 foizdan oshmasligi kerak. Ushbu chetlanishlar doirasida II tovar navi talablariga ham, belgilangan minimal talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlar yoki chirish alomatlariga ega mahsulotlarning umumiy ulushi 1 foizdan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

---

[1] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki yig‘ma namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Tekshirish tasodifiy tanlab olingan namunalarning sifati butun turkum sifatini ifodalaydi, degan tamoyilga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirishda OECDning Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha amaliy qoidalarini, jumladan, mahsulotni jo‘natish bosqichida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlari hamda oziq-ovqat chakana savdo korxonalarining omborlarida operatorlar tomonidan ham qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(ii) Ikkinchi nav

Ushbu nav talablariga ham, belgilangan minimal talablarga ham javob bermaydigan qovunlarning umumiy miqdori dona yoki vazni bo‘yicha 10 foizdan oshmasligi kerak. Ushbu tolerans doirasida chirish alomatlariga ega mahsulotlarning umumiy ulushi 2 foizdan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlashishlar

Barcha sifat toifalari uchun (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan qovunlarning uchun mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish joyi, navi yoki tijorat turi, sifati va o‘lchamiga ega bo‘lgan, shuningdek, rivojlanish hamda pishganlik darajasi va rangi sezilarli darajada o‘xshash bo‘lgan qovunlardan iborat bo‘lishi kerak. Biroq, sifati hamda tegishli har bir nav yoki tijorat turi uchun kelib chiqish joyi bir xil bo‘lishi keraki bilan, bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli yoki tijorat turidagi qovunlar aralashmasini bitta qadoqqa birgalikda joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday aralashmalar holatida o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi. Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq ichidagi mahsulotlar tarkibini aks ettirishi kerak.

B. Qadoqlash

Qovunlar mahsulotning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak. Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, agar matn yoki etiketka belgilari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi. Mahsulotlarga yakka tartibda yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda o‘zidan yelimning ko‘rinadigan izlarini qoldirmaydigan va po‘stloqning nuqsonlariga olib kelmaydigan bo‘lishi kerak. Alohida mevalarga lazer yordamida tushirilgan ma’lumotlar meva eti yoki po‘stlog‘ining shikastlanishiga olib kelmasligi kerak. Qadoqlar har qanday yot moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

---

[2] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon tasodifiy ravishda olingan namunalarning sifati butun partiyaning sifatini aks ettiradi degan taxmin tamoyiliga asoslanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha operatsion qoidalarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, ulgurji savdo va tarqatish markazlarida hamda oziq-ovqat chakana savdo omborxonalarida qo‘llash — shu jumladan, operatorlar tomonidan ham — tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[3] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod belgilari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi. Ko‘cha nomi va uy raqami mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridik manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki ob’yektning nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda abonent pochta qutisi raqami eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda taqdim etilganda yuridik manzil sifatida qabul qilinadi.[6]

B. Mahsulot tavsifi

- agar tarkibi tashqi tomondan ko‘rinmasa, "Qovunlar" deb yozilishi;
- bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli yoki tijorat turidagi qovunlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, "Qovunlar aralashmasi" yoki unga tenglashtirilgan nom bilan ko‘rsatilishi. Agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmasa, navlar va/yoki tijorat turlari hamda qadoqdagi har bir tur miqdori ko‘rsatilishi kerak;
- tijorat turi nomi;
- nav nomi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- kelib chiqqan mamlakati[7] hamda ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tumani (hududi) yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi;
- turli mamlakatlardan keltirilgan, bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli va/yoki tijorat turidagi qovunlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqqan mamlakat nomi tegishli nav yoki tijorat turi nomining yonida ko‘rsatilishi kerak.

---

[3] Ushbu tamg’alash qoidalari ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan qadoqlar ichida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (sotuv paketlariga) nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ular alohida (yakka tartibda) taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (tayyor qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

[4] Bir qator mamlakat qonunchiligi nom va manzildan iborat ma’lumotlarning aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, kodli belgilashdan foydalanilgan taqdirda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki unga tenglashtirilgan qisqartmalar)" degan havola ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar ushbu kodli belgi mahsulot yetishtirilgan mamlakatga tegishli bo‘lmasa, undan oldin uni tan olgan mamlakat/hududning ISO 3166 (alfa-2) standarti bo‘yicha kodi ko‘rsatilishi lozim.

[5] http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html manziliga qarang.

[6] Amerika Qo‘shma Shtatlarining pochta qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus keraki mavjud, chunki bunday manzil korxonani tekshirish yoki mahsulotlarni qaytarib olish holatlarida tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin hamda qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga taalluqli bo‘lgan milliy tamg’alash talablarining tarkibiy qismiga kirmaydi.

[7] To‘liq yoki keng tarqalgan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

D. Tijorat tavsiflari

- tovar navi;
- minimal va maksimal vazn yoki minimal va maksimal diametr bilan ifodalangan o‘lchami;
- dona soni (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1975-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2012-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2023-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Mevalar va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi doirasida mahsulotlarning tijorat turlari bo‘yicha rasmli izohli risola nashr etilgan. Ushbu nashrni OECD kitob do‘konining www.oecdbookshop.org veb-saytidan olish mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #DT3J20TWM4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI